



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

2023- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma‘lumotlar

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19 965** tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2 331** taga yoki **10,5 %** ga kam. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **21,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yilning yanvar-sentabrida **3 018** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **7,0 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi

6,4 %

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar

1 276

12,5 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

2 494




Qurilish

1 414


15,7 %
Sanoat
3 144

41,2 %
Savdo

8 222



2019-2023- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Tuman va shaharlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022- y.

4 911	Navoiy shahri	4 300
3 587	Karmana tumani	3 002
3 015	Qiziltepa tumani	2 734
2 623	Xatirchi tumani	2 344
2 372	Navbahor tumani	2 142
1 650	Zarafshon shahri	1 435
1 488	Nurota tumani	1 346
879	Konimex tumani	879
905	Uchquduq tumani	808
555	Tomdi tumani	593
311	G'ozg'on shahri	382

2023- y.

2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 965** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 018** tani tashkil etdi.

2023- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida **4 300** tani yoki jamiga nisbatan **21,5 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

22 296

2022- y.

19 965

2023- y.

13 531

17 670

2019- y.

2020- y.

20 849



2021- y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Tuman va shaharlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Tomdi t.	52,5
G'ozg'on sh.	42,3
Konimex t.	28,5
Navoiy sh.	27,3
Karmana t.	23,9
Uchquduq t.	23,0
Navbahor t.	21,5
Qiziltepa t.	20,6
Nurota t.	19,0
Zarafshon sh.	16,5
Xatirchi t.	14,5

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1- oktabr holatiga, birlikda



2023- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **21,5** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **3,0** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **52,5** birlik, G'ozg'on shahrida **42,3** birlik, Konimex tumanida **28,5** birlik, Navoiy shahrida **27,3** birlik va Karmana tumanida **23,9** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Tomdi tumani
– 52,5 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Uchquduq tumani
– 23,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Xatirchi tumani
– 14,5 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **52,5** birlik, G'ozg'on shahrida **42,3** birlik, Konimex tumanida **28,5** birlik, Navoiy shahrida **27,3** birlik, Karmana tumanida **23,9** birlik, Uchquduq tumanida **23,0** birlik, Navbahor tumanida **21,5** birlik, Qiziltepa tumanida **20,6** birlik, Nurota tumanida **19,0** birlik, Zarafshon shahrida **16,5** birlik hamda Xatirchi tumanida **14,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Karmana tumani

23,9

Konimex shahri

28,5

Tomdi shahri

42,3

27,3

52,5

Navoiy shahri

G'ozg'on shahri

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlар bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.

2023- y.

509	Navoiy sh.	510
380	Karmana t.	462
462	Qiziltepa t.	354
389	Xatirchi t.	343
339	Navbahor t.	330
289	Uchquduq t.	223
284	Zarafshon sh.	216
205	Nurota t.	189
183	Konimex t.	182
122	Tomdi t.	130
82	G‘ozg‘on sh.	79

2023- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlар bo‘yicha ulushi, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Navoiy shahri – **16,9 %**, Karmana tumani – **15,3 %**, Qiziltepa tumani – **11,7 %**, Xatirchi tumani – **11,4 %**, Navbahor tumani – **10,9 %**, Uchquduq tumani – **7,4 %** Zarafshon shahri – **7,2 %** hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar va shahar, birlikda




2023- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdoda **1 112** ta, sanoatda **554** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **456** ta yangidan tashkil etilgan.


Navoiy viloyatining tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **510** ta, Karmana tumanida **462** ta hamda Qiziltepa tumanida **354** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **18 961** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **7 375** (yoki **38,9 %**) ta, sanoat sohasida – **4 080** (yoki **21,5 %**) ta, xizmatlar sohasida – **3 883** (yoki **20,5 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 682** (yoki **14,1 %**) ta va qurilish sohasida **941** (yoki **5,0 %**) tani tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrdi kichik tadbirkorlik subyektlarining
YAHMdagi ulushi dinamikasi , % da



2023- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **26,7** % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **0,8** % ga oshgan..

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari sanoatda **69,8** % ni, xizmatlarda **12,8** % ni, qishloq xo‘jaligida **13,7** % ni, qurilishda **3,7** % ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mldr. so‘mda




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mldr. so'm



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 562,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (**1572,1** mldr. so'm), Navoiy shahri (**1 067,9** mldr. so'm), Qiziltepa tumani (**742,5** mldr. so'm), Xatirchi tumani (**563,7** mldr. so'm) va Zarafshon shahri (**418,9** mldr. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Tomdida (**44,6** mldr. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, mldr. so'mda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da

2023- yil yanvar-sentabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **7,6 %** ni tashkil etdi.



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Navoiy sh. | 1,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

G'ozg'on sh.	14,0	100,0
Karmana t.	486,5	100,0
Navbahor t.	458,7	100,0
Xatirchi t.	416,2	100,0
Uchquduq t.	81,5	93,8
Konimex t.	71,2	89,6
Navoiy sh.	889,5	86,8
Zarafshon sh.	383,5	86,4
Qiziltepa t.	692,7	69,0
Nurota t.	314,9	50,0
Tomdi t.	47,1	28,0


hajmi, mlrd. so'mda ↑
ulushi, % da ↑

2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 855,4** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **80,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,6** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (**889,5** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**692,7** mlrd. so'm), Karmana tumani (**486,5** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**458,7** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**416,2** mlrd. so'm), Nurota tumani (**314,9** mlrd. so'm) hamda Zarafshon shahri (**383,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8 453,1** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **53,6 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning mos davriga nisbatan **142,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Zarafshon shahri (**2 239,0** mlrd. so‘m), Navoiy shahri (**1 289,9** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**1 219,6** mlrd. so‘m), Tomdi tumani (**921,7** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**663,1** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**599,7** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**417,5** mlrd. so‘m) hamda Nurota tumani (**331,6** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **13 540,1** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **103,8** % ni tashkil qildi.

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**3 977,8** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**2 726,4** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**2 196,9** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**1 809,9** mlrd. so‘m), Nurota tumani (**1 270,9** mlrd. so‘m) hamda Konimex tumani (**675,5** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Navoiy sh.	61,6	100,0
Zarafshon sh.	57,3	100,0
Qiziltepa t.	2726,4	99,9
Tomdi t.	395,1	99,9
Uchquduq t.	301,0	99,9
Navbahor t.	2196,9	99,8
Xatirchi t.	3977,8	99,4
Karmana t.	1809,9	98,7
Nurota t.	1270,9	97,9
Konimex t.	675,5	90,9
G’ozg‘on sh.	67,7	86,2


hajmi, mlrd. so‘mda ulushi, % da

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6 971,7** mlrd. so‘mni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **93,0 %**ini tashkil etib, o‘sish sur‘ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **105,7 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


Uchquduq t.	399,8	99,6
G’ozg‘on sh.	70,4	99,5
Tomdi t.	77,4	99,1
Qiziltepa t.	955,6	98,8
Nurota t.	318,8	98,1
Xatirchi t.	1 009,2	97,6
Konimex t.	238,5	96,9
Zarafshon sh.	742,0	92,1
Karmana t.	1 181,9	91,6
Navbahor t.	405,3	91,6
Navoiy sh.	1 572,8	85,6

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**1 572,8** mlrd. so‘m), Karmana tumani (**1 181,9** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**1009,2** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**955,6** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**742,0** mlrd. so‘m), Navbahor tumani (**405,3** mlrd. so‘m) va Nurota tumani (**318,8** mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

2018 va 2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mld. so‘mda



2023- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 601,0** mld. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **56,4 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **106,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (**1116,1** mld. so‘m), Karmana tumani (**759,0** mld. so‘m), Qiziltepa tumani (**587,9** mld. so‘m), Zarafshon shahri, (**522,1** mld. so‘m), Xatirchi tumani (**515,2** mld. so‘m), Navbahor tumani (**350,3** mld. so‘m) va Nurota tumani (**282,0** mld. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasi turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi va ulushi
(yanvar-sentabr oylarida)

2 341,1	Savdo xizmatlari	95,2
1 149,3	Transport xizmatlari	91,7
225,3	Shaxsiy xizmatlar	99,7
293,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	57,6
102,2	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	77,2
83,4	Boshqa xizmatlar	29,5
121,5	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	95,5
97,5	Ijara xizmatlari	93,9
16,7	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5,3
58,0	Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,9
51,7	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	18,2
54,6	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,5
6,3	Moliyaviy xizmatlar	0,3

Hajmi, mldr. so‘mda



Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi shaxsiy xizmatlarda – **99,7 %** (225,3 mldr. so‘m), savdo xizmatlarida – **95,2 %** (2 341,1 mldr. so‘m), transport xizmatlarida – **91,7 %** (1 149,3 mldr. so‘m) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **57,6 %** (293,4 mldr. so‘m)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,3 %** (6,3 mldr so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Karmana t.	16903,3	34,2
Navoiy sh.	7537,8	2,0
Xatirchi t.	6715,0	97,7
Qiziltepa t.	3557,3	11,3
G'ozg'on sh.	1794,8	100,0
Zarafshon sh.	1701,5	98,3
Navbahor t.	1551,7	8,3
Uchquduq t.	671,6	99,1
Konimex t.	520,3	100,0
Nurota t.	266,4	4,9
Tomdi t.	160,9	99,8

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **41 601,8** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **8,3 %** ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi G'ozg'on shahriida, Konimex tumanida – **100,0 %**, Tomdi tumanida – **99,8 %**, Uchquduq tumanida – **99,1 %**, Zarafshon shahrida – **98,3 %**, Xatirchi tumanida – **97,7 %**, Karmana tumanida – **34,2 %**, Qiziltepa tumanida – **11,3 %**, Navbahor tumanida – **8,3 %** va Nurota tumanida – **4,9 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **2,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **175 487,4 ming AQSH dollarini** yoki jami importning **33,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi, % da

2023- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida - **100,0 %**, Nurota tumanida - **95,3 %**, Zarafshon shahrida - **87,0 %**, Qiziltepa tumanida - **89,1 %**, Navbahor tumanida - **48,6 %** hamda Karmana tumanida - **39,7 %** ni tashkil etdi.

G'ozg'on sh.	100,0
Tomdi t.	100,0
Uchquduq t.	100,0
Xatirchi t.	100,0
Nurota t.	95,3
Qiziltepa t.	89,1
Zarafshon sh.	87,0
Navbahor t.	48,6
Karmana t.	39,7
Konimex t.	35,3
Navoiy sh.	17,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati

8,6 %

Yuk
tashishda

39,7 %

Yuk
aylanmasida

86,9 %

Yo'lovchi
tashishda

88,2 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **8,6** % ni tashkil etdi. 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **39,7** % ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,9** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,6** % ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **88,2** % ni tashkil etib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 1 078 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 585 (54,3 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 458 (42,5 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 35 (3,2 %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 47,9 % (516 ta), xizmatlar sohasida – 24,8 % (267 ta), sanoatda – 12,0 % (129 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 8,4 % (91 ta), qurilishda – 6,9 % (75 ta) ni tashkil etdi.

2023- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo‘yicha taqsimlanishi

269	Navoiy sh.	24,9
183	Karmana t.	17,0
147	Qiziltepa t.	13,6
122	Xatirchi t.	11,3
87	Navbahor t.	8,1
82	Zarafshon sh.	7,6
51	Konimex t.	4,7
61	Nurota t.	5,7
42	Uchquduq t.	3,9
20	Tomdi t.	1,9
14	G‘ozg‘on sh.	1,3


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (**269** ta), Karmana tumani (**183** ta), Qiziltepa tumani (**147** ta) va Xatirchi tumani (**122** ta) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiyl iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **372** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **585** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **213** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **368** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabriga **458** ta yoki **90** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **27** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib **35** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 201-9 yilning yanvar-sentabriga nisbatan **8** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **390** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **556** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **166** taga oshgan.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **238** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **403** taga yetgan yoki **165** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **10** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib, bu ko‘rsatkich **32** tani tashkil etib, **22** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha),

% da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **48,5 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **54,3 %** ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **5,8 %** ga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **47,9 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabriga **42,5 %** yoki **5,4 %** ga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **3,6 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko‘rsatkich **3,2 %** ga yetgan yoki **0,4 %** ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillar yanvar-sentabr oylarida umumiyl iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **61,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib esa **56,1** % ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-sentabriga nisbatan **5,0** % ga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **37,3** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **40,7** % yoki **3,4** % ga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida **1,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kelib, bu ko‘rsatkich **3,2** % yoki **1,3** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida - **62,6** % ni savdo sohasida - **60,0** % ni, qurilish sohasida - **52,7** % ni, xizmatlar sohasida - **47,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish sohasida – **52,0** % ni, xizmatlar sohasida – **49,1** % ni, sanoat sohasida – **43,4** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi , o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida– **5,5** % ni, sanoat sohasida – **3,9** % ni, xizmatlar sohasida – **3,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **71,6** % ni, sanoat sohasida – **59,7** % ni va qurilish sohasida – **59,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida - **42,2** % ni, xizmatlar sohasida – **39,7** % va qurilish sohasida – **37,2** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoat sohasida – **4,7** % ni, qurilish sohasida – **3,8** % ni va xizmatlar sohasida – **2,7** % tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	40,9	54,8	4,3
Band bo'lganlar soni	20,4	77,6	2,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,7	66,1	3,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	23,7	72,2	4,1
Raqobat muhiti	41,3	56,1	2,6

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,4	53,6	3,0
Band bo'lganlar soni	23,9	74,2	1,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	31,6	65,5	2,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,2	69,9	3,9
Raqobat muhiti	42,0	55,1	2,9

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da**



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2023- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



■ ko'payish (yaxshilanish*) ■ o'zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli